



**INKLYUZIV MAKTAB MUHITI: YANGI O‘ZBEKISTONDA TA’LIMDAGI  
ISLOHOTLAR SAMARASI**

**Boyqulov Azamat Maxram o‘g‘li**

Jizzax viloyat pedagogik mahorat markazi.

Boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari kafedrası o‘qituvchisi

+998977934022

[azamatboyqulov223@gmail.com](mailto:azamatboyqulov223@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda inklyuziv maktab muhitini shakllantirish jarayoni hamda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritilgan. Inklyuziv ta‘limning huquqiy asoslari, tashkiliy mexanizmlari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bolalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, pedagog kadrlar malakasini oshirish masalalari hamda jamiyatda bag‘rikenglik muhitini qaror toptirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Maqolada inklyuziv ta‘limning ijtimoiy ahamiyati va uning Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash tamoyili bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv ta‘lim, inklyuziv maktab muhiti, ta‘lim islohotlari, teng imkoniyatlar, alohida ta‘lim ehtiyojlari, pedagog malakasi, ijtimoiy adolat, bag‘rikenglik, ta‘lim siyosati.

**INCLUSIVE SCHOOL ENVIRONMENT: THE IMPACT OF EDUCATIONAL REFORMS  
IN NEW UZBEKISTAN**

**Boyqulov Azamat Makhram ogli**

Teacher of the Department of Primary and Special Education Methodology Jizzakh Regional Center for Pedagogical Excellence

Phone: +998977934022

Email: [azamatboyqulov223@gmail.com](mailto:azamatboyqulov223@gmail.com)

**ANNOTATION**

This article highlights the process of creating an inclusive school environment in the New Uzbekistan and the essence of the reforms being implemented in the field of education. The legal foundations, organizational mechanisms, and practical outcomes of inclusive education are analyzed. Additionally, the conditions being created for children with special educational needs, issues of improving the qualifications of teaching staff, and ways to establish a culture of tolerance in society are examined. The article substantiates the social significance of inclusive education and its close connection with the principle of human dignity in New Uzbekistan.

**Keywords:** inclusive education, inclusive school environment, educational reforms, equal opportunities, special educational needs, teacher qualifications, social justice, tolerance, education policy.

**ИНКЛЮЗИВНАЯ ШКОЛЬНАЯ СРЕДА: ЭФФЕКТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ В  
НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

**Бойкулов Азамат Махрам угли**

преподаватель кафедры методики начального и специального образования Джизакский  
областной центр педагогического мастерства

Телефон: +998977934022

Email: [azamatboyqulov223@gmail.com](mailto:azamatboyqulov223@gmail.com)

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье освещается процесс формирования инклюзивной школьной среды в Новом Узбекистане, а также содержание проводимых в сфере образования реформ. Анализируются правовые основы инклюзивного образования, организационные механизмы и



практические результаты. Кроме того, рассматриваются условия, создаваемые для детей с особыми образовательными потребностями, вопросы повышения квалификации педагогических кадров, а также пути формирования в обществе атмосферы терпимости. В статье обосновывается социальная значимость инклюзивного образования и его неразрывная связь с принципом уважения человеческого достоинства в Новом Узбекистане.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, инклюзивная школьная среда, образовательные реформы, равные возможности, особые образовательные потребности, педагогическая квалификация, социальная справедливость, терпимость, образовательная политика.

*“Odamda qanday tashxis ekanligi muhim emas. Unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va munosib hayot kechirish imkonini berish muhim”.*

**Mariya Sibulskaya**

Kirish Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash, har bir fuqaroning huquq va manfaatlarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Xususan, ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar barcha bolalarga teng imkoniyat yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta‘lim tizimining joriy etilishi ana shu ezgu maqsadning amaliy ifodasidir.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me‘yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta‘minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta‘limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta‘limning uzviylik va uzluksizligini ta‘minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Inklyuziv maktab muhiti – bu barcha o‘quvchilar, jumladan alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bolalar uchun qulay, xavfsiz va teng imkoniyatli ta‘lim makonini yaratish demakdir.

Inklyuziv ta‘lim – bu barcha bolalarning, ularning jismoniy yoki ruhiy holatidan qat‘i nazar, umumiy ta‘lim muassasalarida teng huquqli ravishda ta‘lim olish jarayonidir. Ushbu tamoyil xalqaro miqyosda inson huquqlarini himoya qilish g‘oyalariga asoslanadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyada har bir bolaning sifatli va kamsitishsiz ta‘lim olish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayon mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli ta‘lim islohotlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Inklyuziv ta‘limni joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bolalarni jamiyatdan ajratmasdan, ularni tengdoshlar bilan birgalikda o‘qitish va ijtimoiy hayotga moslashtirishdir.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta‘lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida “Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta‘lim loyihasi” asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta‘lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta‘limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish, u bilan bog‘liq muammolarni



aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta'lim usuli barcha bolalarning ruhiy jismoniy holatidan qat'iy nazar ta'lim jarayonida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlashga qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, u alohida yordamga muhtoj bolalarning atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishi, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan bo'lib ulg'ayishi, o'z kundalik-maishiy ehtiyojini qondira olish ko'nikmalarini egallashi, hayotga moslashib, umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan teng sharoitlarda o'qiy olishi, ular bilan o'zaro do'stona munosabatga kirishishi, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishi, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashishi uchun qulayliklar tug'diradi.

Inklyuziv maktab muhitini yaratish bir necha muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, huquqiy asoslarni mustahkamlash. Ta'lim sohasidagi qonunchilikda barcha bolalarning teng huquqli ta'lim olishi kafolatlanmoqda.

Ikkinchidan, infratuzilmani moslashtirish. Maktablarda panduslar, maxsus jihozlangan sinfxonalar, moslashtirilgan sanitariya xonalari tashkil etilishi inklyuziv muhitning muhim omilidir.

Uchinchidan, pedagog kadrlar tayyorlash. O'qituvchilar inklyuziv metodika, differensial yondashuv va individual ta'lim rejalarini tuzish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu borada UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar tavsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, ijtimoiy muhitni shakllantirish. Inklyuziv ta'lim nafaqat alohida ehtiyojli bolalar, balki sog'lom tengdoshlar uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday muhitda bolalar o'zaro hurmat, bag'rikenglik va hamkorlik ruhida voyaga yetadi.

Inklyuziv ta'limning samarasi uzoq muddatli ijtimoiy natijalarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, ularning bandligi va mustaqil hayot kechirish imkoniyatlari kengayadi. Eng muhimi, har bir bola o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish choralari belgilandi. Umumta'lim maktablarida alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari, maxsus pedagoglar va psixologlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Inklyuziv maktab muhitini shakllantirish faqat infratuzilmani moslashtirish bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash hamda sog'lom tengdoshlar orasida bag'rikenglik muhitini qaror toptirishni ham talab etadi. Yangi O'zbekistonda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida inklyuziv ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, maktab binolarini panduslar, maxsus jihozlar, moslashtirilgan sinfxonalar bilan ta'minlash orqali jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan. Maktablarda maxsus sinflar, pedagoglar va psixologlar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi – bolani ajratish emas, balki uni jamiyatga moslashtirish, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ko'maklashishdir. Bunday muhitda ta'lim olgan bolalar kelajakda bag'rikeng, mehr-oqibatli va ijtimoiy faol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim sohasidagi islohotlar quyidagi natijalarni bermoqda:

- imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga qamrovi oshmoqda;
- maktablarda tenglik va adolat muhiti shakllanmoqda;
- pedagoglarning malakasi oshmoqda;
- zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda;



-inklyuziv maktablar soni ortib bormoqda.

Shuningdek, tajriba maktablari orqali yangi yondashuvlar sinovdan o'tkazilib, keyinchalik butun tizimga joriy etilmoqda.

Kelgusida inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish uchun:

-pedagoglarni tayyorlashni kuchaytirish;

-zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish;

-xalqaro tajribani o'rganish;

-jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv maktab muhiti Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlarining muhim natijalaridan biridir. Bu tizim orqali har bir bolaning bilim olish huquqi ta'minlanmoqda, jamiyatda tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanmoqda. Inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish esa kelajakda yanada adolatli va barkamol jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va metodik tavsiyalar. – Toshkent, 2021.
4. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Inclusion. – Paris, 2005.
5. UNICEF. Inclusive Education: Understanding Article 24 of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities. – New York, 2017.
6. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, 2006.
7. Xoliqov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
8. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent, 2019.